

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.U.Xamidjanov Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatli o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
A.A.Parmonov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili	90
M.A.Tursunboyeva Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi	97
M.I.Boymanova Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish	102
A.Matkarimov O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida)	105
N.M.Xodjibolayeva Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	110
M.Sh.Dehqonova Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi	114
N.Sayimbetova Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	117
A.Abdullayev Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi	121
J.Sh.Mamayusupov Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati.....	125
S.Abdullayev Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni.....	129
D.O.Djalilova Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati.....	138
M.M.Азизов Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба?	141
L.Z.Xolmurodov 9-10 yoshdagi bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari.....	147
I.M.Saidov Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi	151
O.A.Xo'jaqulov Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari	155

FALSAFA

A.A.Qambarov Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili	161
B.B.Namozov Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida	166
M.T.Voxidova Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari.....	172
I.M.Arzimatova Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari	176

**MOVAROUNNAHRDA TEMURIYLAR DAVRIDA TASAVVUF IJTIMOY MA'NAVY
HODISA SIFATIDA****В МАВЕРАННАХРЕ ВО ВРЕМЕНА ТИМУРИДОВ МИСТИЦИЗМ КАК СОЦИАЛЬНОЕ
ДУХОВНОЕ ЯВЛЕНИЕ****IN MAVARANNHR DURING THE TIMURID PERIOD, MYSTICISM AS A SOCIAL
SPIRITUAL PHENOMENON****Namozov Bobir Bahriyevich¹**¹Buxoro davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada temuriylar davrining madaniy yuksalishlari poydevorini yaratishda xizmat qilgan allomalar, tasavvuf vakillarining o'ziga xos g'oyaviy va mafkuraviy, jaholatga qarshi kurashlari manbalar asosida ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье раскрывается деятельность ученых эпохи тимуридов послуживших созданию фундамент культурного подъема, специфическая идеологическая борьба представителей суфизма относительно невежды на основе источников

Abstract

This article reveals the activities of scientists of the Timurid era who served to create the foundation of the cultural rise, the specific ideological struggle of representatives of Sufism against the ignoramus based on sources.

Kalit so'zlar: ma'rifat, johillik, jaholat, tasavvuf, murosa, bag'rikenglik, mazhab, tariqat, insonparvarlik, mutasavvif, orif, zohid

Ключевые слова: просветительство, невежда, суфизм, суфизм, компромисс, толерантность, конфессия, тарикат, гуманизм, суфий, аскет

Key words: enlightenment, ignoramus, Sufism, Sufism, compromise, tolerance, confession, Tariqa, humanism, Sufi, ascetic

KIRISH

O'rta asrlarda tasavvuf hurfikrlilik, axloqiy tarbiya, inson uchun kamolot yo'llarini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida Movarounnahr xalqlari hayoti va tafakkur tarziga kirib bordi. Movarounnahr diyorida yashayotgan turli xalqlarni o'zaro hamjihatlikka, halol mehnatga, qalb ibodatiga, axloqiy yuksalishga da'vat etdi. Inson qalbini barcha ezguliklar, yaxshiliklar, mehr-shafqat, bag'rikenglik manbasi deb qaradi. Shuning uchun ham qalb pokligi, zehn teranligi, haq yo'l, mustahkam e'tiqod, murosani inson uchun muhim hisobladi. Insonni faqat qalbi kamolotga olib borishini, uni ruhan, ma'nau yuksaltirishini, "Komillik" maqomlariga erishishini uqtirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyoga mo'g'ullarning kirib kelishi va hududlarda mo'g'ul shahzodalari o'rtasidagi toju-taxt uchun o'zaro kurashlar Movarounnahr ijtimoiy-madaniy hayoti barqarorligini izdan chiqargan edi. Bu vaziyat mamlakatning iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'lka madaniyati tarixiga oid manbalar, ilm maskanlari, madrasa va kutubxonalar qarovsiz qoldi. Bu beqaror vaziyatdan ko'plab ilm-fan, san'at, adabiyot, vakillari, ulamolar, olimlar, me'mor va musavvirlar aziyat chekdilar.

Mo'g'ullar bosib olgan hududlarda dehqonlar va hunarmandlarning shart-sharoitlari og'ir edi. Ular eng yaxshi hunarmandlarni o'zlarining manfaatlari uchun ishlashga, qolgan qismini soliqlar to'lashga majbur qilardilar. Mo'g'ullarning bosqinchilik siyosati xalqning tinkasini quritib, noroziliklarga sabab bo'layotgan edi. Tarixdan ma'lumki, Mahmud Torobiy boshchiligidagi (1238.y.) qo'zg'olon ushbu zo'ravonliklarga qarshi qaratilgan edi. Bu qo'zg'olonda ko'plab hunarmandlar, dehqonlar va Shamsiddin Mahbubiy kabi mashhur shayxlar ham halok bo'ldilar.

Ma'lumki, XIV-XV asrlarda ijtimoiy-ma'naviy hayotda tariqatlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Xususan, Naqshbandiya tariqatining xalqchil hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga yaqin g'oyalari xalqni jipslashtirishga, hunarmandchilikning rivojlanishi uchun muhim ijtimoiy-mafkuraviy omil sifatida shakllangan edi. Tariqatning ijtimoiy kelib chiqishi, tabaqasi, tili va millatidan qat'iy nazar

FALSAFA

Movarounnahr va Xuroson o'lkalaridagi xalqlarni birlashtirdi. O'zida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, yakdillik, axloqiy poklik, beozorlik, bag'rikenglik, halol mehnat qilish kabi yuksak g'oyalarni jamlagan bu mo'tadil tariqat oddiy fuqarodan tortib, podshohlarga qadar tushunarli bo'lib, o'z ta'sirini ko'rsata olar edi. Tariqat shayxlarining mavqei oshib, tariqatchilik g'oyalari targ'ib qilina boshlandi. Bu davrda Xuroson va Movarounnahrda xurufiya, hakimiya, nurbaxshiya, yassaviylik, xojagon, naqshbandiya, mavlaviylik, suhravardiylik, kubraviylik tariqatlari ham madaniy-ma'naviy muhitdao'ziga xos o'rin tutgan. Tasavvuf va tariqatlar, turli oqim, ta'limotlar o'rtasida mazhabiy bahs munozaralar ham davom etardi. Amaliy ijtimoiy-siyosiy yo'nalishda rivojlanayotgan tariqatlar falsafiy-irfoniy masalalardan bir qadar uzoqlashgani ham kuzatiladi.

Tariqatlarning bir tomonlama zohiriy rasm-rusum, odob doirasidagi faoliyati, siyosiy-mazhabiy harakat tusini olishi, tasavvufning asl mohiyatidan uzoqlashib, turli nizo va ixtiloflarning kelib chiqishiga ham sabab bo'ldi. Bu bir tomondan mo'g'ullar zulmiga qarshi siyosiy-mazhabiy norozilik harakati shaklini oldi. Ikkinchi tomondan shialarning o'z aqidalariga mos tariqatlarining paydo bo'lishi, turli sunniy va shia jamoalari ixtiloflarining kuchayishiga olib keldi. Uchinchi, soxta shayxlarning tasavvufdan bo'lmagan (bid'at, yangi) narsalarni unga kiritishga va tariqatni o'z manfaatlariga bo'ysundirishga harakat qilishlari odamlarda tasavvufga ishonchning susayishiga olib keldi. To'rtinchidan, ushbu shart-sharoit tasavvufning ta'lim berish, o'qib o'rganish mumkin bo'lgan nazariy tizimini ishlab chiqishni va uning falsafiy-irfoniy asoslarini mustahkamlashni taqozo qilardi.

Xoja Muhammad Porso davrning bunday dolzarb va nozik muammolarini anglab, tasavvufning falsafiy-irfoniy masalalarini chuqur tadqiq etishga harakat qildi. U nazariyotchi olim sifatida tasavvufning mumtoz davri vakillari Hakim at-Termiziy, Majduddin Bag'dodiy, Abu Bakr Kalobodiy, al-Hujviriy, G'azzoliy ta'limotlariga tayanib, temuriylar davri tasavvuf va tariqatlarning aqidaviy, mazhabiy muammolarini nazariy jihatdan yoritdi. XIV-XV asrlarda vujudga kelgan aqidaviy, mazhabiy masalalarni qayta ko'rib chiqdi. Uning ilmiy izlanishlari, temuriylarning xarixohliklaritufayli ahli sunna va jamoa yo'lida bo'lgan mo'tadil Naqshbandiya tariqatining nufuzi va geografik hududi kengaydi. Naqshbandiya tariqatining nafaqat amaliy tartib qoidlari balki, nazariy jihatdan irfoniy g'oyalarining ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'siri oshib, umumtasavvufiy ta'limot darajasiga ko'tarildi.

Eronlik olim Tohiri Iroqiy Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" ("Muqaddas so'zlar") asarining "تيمور عصري در نقشبنديان" "Temur asrida Naqshbandiyalar", deb nomlangan so'z boshida shunday yozadi: "Xoja Abduxoliq G'ijduvoni va uning xalifasi Bahouddin Naqshband haqiqatdan ham islomiy tasavvuf islohotchilaridir, bu tariqat chillanishinlik, xilvatninishinlik, qalandarvash darveshlikni rad etadi. U zohiriy rasm-rusm, taqliddan uzoq bo'lgan, haqiqiy "irshod" va "irfon" ga asoslangan, tarbiya va odobni maqsad qilgan mo'tadil sunniy tariqatdir"[1,11].

Demak, Xoja Muhammad Porso temuriylar davrining mutafakkiri va tasavvuf nazariyotchisi, Naqshbandiya tariqatining o'z davri va keyingi zamonlardagi rivojlanishini ta'minlagan olim sifatida nafaqat diniy shar'iy masalalar bilan bog'liq muammolarini, balki uning falsafiy-irfoniy tomonlarini o'z izlanish uslubi asosida qayta ko'rib chiqdi. Uning fano va baqo, mavjudlik va ma'dumlik (yo'qlik), makon va zamon, Xudo va tabiat, inson va jamiyat haqidagi diniy-falsafiy qarashlari o'z davri va keyingi davrlarda din falsafasi bilan bog'liq muamolar yechimida dasturul-amal bo'lib xizmat qildi. Xoja Muhammad Porso ilmiy merosi bilan shug'ullangan ko'plab tadqiqotchilar uning merosiga bir yoqlama yondashib, uni naqshbandiya tariqatining nazariyotchi olimi sifatida baholashga urinadilar. Bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Xoja Muhammad Porso XIV-XV asr tasavvuf nazariyasida o'ziga xos uslubda izlanishlar olib borish bilan birga tariqatlarning amaliy tajribalarini uyg'unlashtirgan. Uning asarlari keyingi davrlarda Movarounnahr va Xuroson tasavvuf maktablaridan tashqari musulmon o'lkalarida shakllangan tasavvuf, kalom, fiqh maktablari rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, Xoja Muhammad Porso va davrning yirik tariqat shayxlari, din ulamolarining say'-harakatlari sababli mo'g'ullarning musulmon o'lkalarida islom diniga yaqinlashishga, uning meyorlarini bilishga qiziqish uyg'otgan edi. Ulamolarning g'oyaviy ta'sirlari ko'plab mo'g'ullarning islom dinini qabul qilishlariga sabab bo'ldi. Musulmonlikni qabul qilgan mo'g'ul hukmdorlari o'z saltanatlarida ijtimoiy-ma'naviy hayotning yaxshilanishiga, barqarorligiga erishdilar. O'ika xalqlari urf-odatlarini, e'tiqodiy munosabatlariga hurmat bilan qaray boshladilar. Bu ham aslida mug'ullarga

qarshi kurashning bir ko'rinishi yoxud "jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurashish bo'lganiga shubha yo'q.

XIV asrda Buxoroda va Xurosonda ko'p yillar qozilik qilgan Alouddin Buxoriy o'zining "Hayratul fuqaho" ("Faqihlar hayrati") asari muqaddimasida Botuxon sulolasidan bo'lgan Oltin O'rdaning so'nggi xoni Navro'zbek (757/1356-759-1358-yy) ni ta'riflab, ilgari (ungacha bo'lgan davrda) Movarounnahrda ilmning susaygani, namozga e'tibor qaratilmagani, uning hukmronligi davrida esa, asta-sekin taraqqiy etganini eslatib o'tadi[2.107]. Alouddin Buxoriy mo'g'ullar bosqini davrida Buxoro shahrining vayron bo'lganligi, xalqning mo'g'ullar zulmi sabab bir muddat ilm va ma'rifatga e'tibor pasaygani, musulmonchilik qoidalarining bajarilishi uchun imkoniyatlar cheklanganligi, madrasalar, masjidlar qarovsiz holga kelib qolganligini bayon qilgan. Uning fikriga ko'ra, mo'g'ullarning asta-sekinlik bilan islom diniga bo'lgan hurmatlari oshib borgan. Navro'zbek (757/1356-759-1358-yy) davrida ayniqsa, Movarounnahrda madaniy muhitning tiklanishi, din ahkomlarini bajarish uchun shart-sharoitlar shakllanganligi kuzatiladi.

Chig'atoy va uning atrofidagi mo'g'ullar islomni qabul qilish va tan olishda o'zaro qarama-qarshi kayfiyatda edilar. Shunga qaramasdan, Muborakshoh va Berkaxon islom diniga kirishlari manbalarda keltiriladi. Mo'g'ullarning islom diniga kirishida o'z davrida Shayxul-Olam Sayfiddin Boxarziyning o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta, mo'g'ullar zulmiga qarshi qaratilgan harakatlarda tasavvuf shayxlari ham o'ziga xos kurash olib borganlar. Najmiddin Kubroning jasorati ham bunga misol bo'la oladi.

XIV asrlardagi mo'g'ullarning o'zaro urushlari Osiyodagi oddiy feodal urushlaridan farq qilmas edi[3.898]. Arab sayyohi Ibn Batuta o'zining sayohatlari haqidagi "في النظر تحفة بطوطة ابن رحلة" "Ibn Batutaning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari" nomli asarida mo'g'ul hukmdorlaridan biri Kabakxon bilan Buxorolik faqih, voiz, muzakkir Badriddin Maydoniy o'rtasida bo'lgan bir hikoyani keltiradi: YA'ni: ذكر أن ذكر له فقال الميداني الدّين بدر المذكّر الواعظ الفقيف مع يوما تتكلم كان كيك الملك هذا أن ذكر ذلك ركبكأجبه شاء ما صورة أي في :تعالى قوله في هو:فقال فيه؟ إسمى أين:فقال نعم:قال الزيز كتابه في شئ كلى ذكر الله إن:تقول أنت المسلمین تعظیم كثيراً أكراما فالكرمه.جيد بالتركية ومعناه يخشى وقال Tarjimasi: "Kunlarning birida Kabakxon Buxorolik faqih, voiz va muzakkir Badriddin Maydoniydan so'radi: Sen aytdingki, Alloh o'zining muqaddas kitobida hamma narsani zikr qilgan. Badriddin Maydoniy ha shunday, deb javob berdi. Kabakxon so'radi: Qur'onda mani ismim bormi?. Badriddin Maydoniy Qur'onning "Infitor" surasining: "Fi ayyi suratini ma shaa' rok kabak", ya'ni: "O'zi xoxlagan suratda seni tarkib qildi",- degan mazmundagi 7-oyatini yoddan o'qidi. Kabakxon oyatdagi "rok kabak" so'zida o'zining ismi borligidan ajablendi va turkiycha "yaxshi" dedi. Kabakxon Maydoniyga juda yuksak ehtirom ko'rsatdi. Musulmonlarga uning sharofati bilan ko'p iltifotlar qildi". Kabakxon o'z humronligi ostidagi hududlarda islom ilmlari, madaniyati rivojlanishi uchun e'tibor qaratadi. Mo'g'ullar bilan bog'liq bunday voqealar ko'plab manbalarda keltiriladi. Muhimi mo'g'ullarning zulm va jaholatiga qarshi Movarounnahrda ma'rifat bilan qarshi kurashgan Badriddin Maydoniy kabi olimlar ko'pchilikni tashkil qilgan.

1318-1326-yillarda Nasafdan ikki farsah (7-8 km) da Kabakxon o'ziga katta saroy qurdirgan edi. Saroy atrofida asta-sekin Qarshi shahri vujudga kelib, markazga aylandi. Kabakxon iqtisodiy va ma'muriy jihatdan islohot o'tkazib, ma'muriy va pul siyosatini yangiladi. Bu islohotlarni amalga oshirishda Kabakxon Qozonxonning 1295-1304-yillarda Eronda amalga oshirgan pul siyosati tizimini andoza qilib oldi. Ma'muriy islohotlar esa, hududlarni harbiy-ma'muriy okruglar tumanlarga bo'lib boshqarishdan iborat bo'ldi. Bu davrga kelib, Samarqandda yettita, Farg'onada to'qqizta tuman bo'lib ularda o'n mingga yaqin aholi yashardi. Kabakxon islohotlari Movarounnahr uchun o'z samarasini berdi. Biroq, uning vafotidan keyin mo'g'ul xonlari o'rtasida yana o'zaro urushlar avj oldi. Qozonxon va Qazag'on o'rtasidagi to'qnashuvda Qazag'on g'olib bo'lib, Movarounnahr (1346-1358-yy.) uning qo'lga o'tdi. Qazag'on Tog'luq-Temur tarafdorlari tomonidan o'ldiriladi. Mo'g'ul xoni Tog'luq-Temur vaziyatdan foydalanib, 1360-1361-yillarda ikki marta Movarounnahrda yurish qildi. O'lka boyliklarini qo'lga kiritish, xalqni zulm ostida saqlash podshohlarga hukmronlikning uzoq davom etishiga olib kelmadi. Chunki, mo'g'ullarning bosqinchilik siyosati va zulmi xalq ommasi noroziligini kuchaytirib, ozodlik uchun kurashlarning avj olishiga olib keldi. Bunday keng ko'lamdagi norozilik harakatlari mintaqada mo'g'ullar hukmronligini zaiflashtirib, ularga qarshi kurashning kuchayishi uchun zamin yaratdi.

Amir Temurning siyosiy maydonga kirib kelishi, mavjud tarqoqlikka barham berib, xarobaga aylangan mamlakatni mo'g'ullar zulmidan ozod qilishga olib keldi. Amir Temur davrida musulmonlar ma'naviy hayotida tasavvuf shayxlarining o'zni muhim ahamiyat kasb etardi. Shahrisabzda Amir

FALSAFA

Kulol katta nufuzga ega bo'lib, Amir Temurning otasi Tarag'ayning ma'naviy piri hisoblangan. Tarag'ay o'g'li Temurda shayxlarga alohida hurmat va mehr uyg'otgan edi. Amir Temur ko'plab g'alabalarini Amir Kulol duolari sharofatidan debbilar edi. Bahouddin Naqshband Amir Kulolning shogirdlari hisoblanadi. Amir Temur "Bahouddin Naqshband va men bitta piring shogirdimiz" degan fikrlari ko'plab manbalarda keltiriladi. Amir Temur Balxni qo'lga kiritgandan so'ng uning xizmatiga o'z davrining mashhur shayxlari Abul-Maali va Ali Akbarlar kirdilar. Amir Temur bilan ularning yaqin aloqalari, musulmon ulamolari va shayxlarining mustahkam munosabatlari uchun zamin bo'ldi. So'fiy shayxlar insonni tabiatni sevishga, inson hayotining mazmunini, maqsadini anglashga o'rgatishga doir qator ta'limotlar yaratdilar. Shu yo'nalishda Muhammad Porso va boshqa allomalar alohida xizmat qildilar. Ular insoniyat jamiyatining barqarorligi uchun kurashlarda g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy ta'limotlari bilan xalqni ozodlikka, hurfikrlilikka, halol mehnat qilishga, zulm va zo'ravonlikka qarshi turishga chaqirdilar.

NATIJA VA MUXOKAMA

Amir Temur asos solgan davlat o'z davrida Yevropa va Osiyoda eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Amir Temur vafotidan so'ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatni boshqardilar. Temuriylar davrida markaziy davlat ikkiga bo'linib, ya'ni Movarounnahr va Xurosonga ajratilib idora etildi. Samarqand va Hirot bu ikki davlatning markazi sifatida ravnaq topdi. Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro davrlarida bu zaminlarda madaniy hayot yanada yuksaldi. Mamlakatmiqyosida din va tasavvuf ma'naviy yo'nalish sifatida butun madaniy jarayonga musulmon olamida madaniy-ma'rifiy aloqalarning kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Bu davrga kelib ma'naviyatda hurfikrlilik, ilm-fanga hurmat e'tibor, bilimlarni egallashga intilish bilan birga uning qadr-qimmatini yuksak baholash ustuvorlik qildi. Diniy va dunyoviy ilmlar uzviy holda rivojlanib bordi. Qadimgi yunon, hind va boshqa xalqlarning salohiyatidan keng foydalanildi.

Xoja Muhammad Porsoning temuriy shahzodalarga yaqinlashuvi, ular bilan shariat va tariqat masalalaridagi bo'lgan suhbatlari hamda iliq munosabatlari uning ilm va ma'rifat sohasidagi yutuqlari ayniqsa, Naqshbandiya tariqatining kengayishi va nufuzining ortishida muhim omil bo'ldi. Temuriylar saroyining mutafakkir shoiri Xoja Ismat Buxoriyo'zining «Devoni Xoja Ismat» asarida naqshbandiya tariqatining yirik nazariyotchilimi Muhammad Porsoga bag'ishlangan "Dar sitoyishi Xoja Muhammad Porso" qasidasida o'zining buyuk muhabbati va ehtiromini ifodalagan.

Saqfi Turat ar biguyam tu ba sad Tur lrfoyi,
Baytuma'mur ar biguyam z-u ba sad ruyi anvari.
Solikin rohi irfon ro tu iydi A'zami,
Zoironi Ka'bai jonro tu hajji Akbari.[7.182].

Mazmunan tarjimasini:

Toqqa o'xshatsam seni, cho'qqiga yetmas yuzta Tur,
Bayti Ma'mursan desam, yuzing undan nurlidir.
Ma'rifat soliklariga lydi a'zam Sen o'zing,
Jon Ka'basi zoirlariga Hajji akbar Sen o'zing.

Mirzo Ulug'bek o'z davrida Xoja Ismat Buxoriyini saroyga taklif qilib, temuriyozdarning ta'limi va tarbiyasiga mas'ul qilib qo'yadi. U mudarrislik faoliyati bilan birga qasidalar, g'azallar, ruboiylar yozadi. Uning Muhammad Porsoga bag'ishlab yozgan qasidasi Muhammad Porsoga zamondoshlarining munosabati va uning temuriylar davridagi mavqeini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Manbalarda:[8.91]. "Hazrati Muhammad Porso goh-goh musulmonlarning muhimlarini kifoyat etmak jihatidin Mirzo Shohruhga "ruq'a" yozar erdilar", - degan ma'lumotlar keltirilgan. Temuriylarning Xuroson hukmdori Shohruh Muhammad Porsoga ixlosi juda baland bo'lib, u zotdan turli diniy masalalar bo'yicha yozishib turgan.[9.90].

Muhammad Porso Mirzo Ulug'bek Samarqandda hukmronlik qilgan davrdahadis[10.90] sohasidagi bahslarda o'zining salohiyatini ko'rsatgan. Mirzo Ulug'bek Muhammad Porsoning nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy ilmga ham, qomusiy bilimdonligiga ham tan bergan. Muhammad Porso kabi Xojagon-naqshbandiya shayxlarining insoniyat jamiyati uchun qilgan xizmatlarining Mirzo Ulug'bek tomonidan e'tirofi va muhabbatini G'ijduvonda Abduxoliq G'ijduvoniya maqbarasi yonida barpo etgan madrasasi misolida ko'rish mumkin.

XIV-XV asrlarda ilm va ma'rifat, adabiyot va san'atning rivojlanishi bilan birga tasavvufning rivojlanishini ham kuzatish mumkin. Bu davlarda tasavvufning ilohiy "ishq" haqidagi g'oyalari san'at va adabiyotga kuchli ta'sir ko'satdi. Musavvirlar, shoirlar ijodiga kirib borib, adabiyotning jozibasini oshirdi. Tasavvuf adabiyoti hikmat va falsafa bilan boyitildi.

Bu davrga kelib, musulmon olamida tabiiy va aniq fanlar rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan qomusiy allomalar yetishib chiqqanlar. Ularning arab va fors tillaridagi asarlari, sharhlari temuriylar saltanatining madaniy-ma'naviy muhitini barqarorlashtirishga xizmat qilgan.

Shunday olimlardan biri, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy (1339-1413-yy.) bo'lib u 50 dan ortiq asarlar yozgan[11.189]. ular fanning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Uning XII-XIII asrlarda Xorazmda yashab o'tgan Mahmud al-Chag'miniyning astronomiyaga oid asarlariga yozgan "Sharhe mulahas al-haya" ("Astronomiyaga oid saylanmaga sharh") va Nosiriddin Tusiy asariga bag'ishlangan "Sharhe tazkirat-ul-Nasiriyat" ("Astronomiya haqida eslatmaga sharh") asarlari mashhurdir. Shuningdek, Sa'duddin ibn Umar Taftazoniy, at-Taxtoniy ibn Muborakshoh, Samarqandda Abdujabbor Xorazmiy, Shamsiddin Munshiy, Abdullo Lison, Badriddin Ahmad, Nug'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Hoqiy kabi olimlar ham shu davrda yetishib chiqqanlar.[12.9].

Ularning ta'limotlari o'rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni: borliq haqidagi ta'limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari, mantiqiy fikrlash ta'limoti, til va tafakkur aloqalarni o'z ichiga oladi.

Tasavvuf shayxlari deganda, ko'pchilik nazarida faqat din va tariqat ishlari bilan mashg'ul bo'lgan molar gavdalanadi. Holbuki, ular hukmdorlarga siyosat, ma'rifat, davlat boshqaruvida ham imkon qadar ko'maklashganlar. Shuning uchun Amir Temur, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi davlat boshliqlari xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan tariqat pirlariga ehtirom ko'rsatganlar.[13.57].

XIV-XV asrlarda Xoja Muhammad Porso va boshqa shayxlarning xizmatlari sababli Naqshbandiya tariqati nufuzi yanada oshdi. Naqshbandiya Amir Temur va temuriylar davlatining mafkuraviy asosiga aylanib bordi. Xalqning Naqshbandiya shayxlariga ishonchlari ortib, tariqatchilikda unga ergashuvchilar ko'payib bordi. Aynan, shu asrlarda Naqshbandiya tariqati o'zining geografik hududlarini yanada kengaytirdi. Bu esa, tariqatning mo'tadil ahli sunna va jamoa yo'lida ekanligi, uning g'oyalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotga yaqinligi jihatidan boshqa tariqatlardan farq qilishi bilan ham bog'liq edi.

Xoja Muhammad Porsoilk o'rta asr qomusiy allomasi vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sino hayoti va uning faoliyati bilan bog'liq masalaga e'tibor qaratishi o'ziga xos tarzda XIV asrga qadar o'z yechimini topmagan, turli e'tiroz va tanqidlarga sabab bo'lgan bahslarga xulosa yasaydi. U o'zining "Faslul-xitob" asarida shunday yozadi: "Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Husan ibn Ali ibn Sino ahli nazarning ustoz va muqtadosi va raisi. Bu yo'ldagi izlanishlarida nazariy quvvatning fitratini sog'lomlashtirish mumkinligini yoki u orqali zavq va ilhom yo'lini ochish imkoni borligini rad etuvchilar yo'lidan ketdi. U ko'p o'rinlarda narsalarning haqiqatlarini anglash basharning qudratida emasligini aksincha, insonning bosh g'oyasi narsalarning xislatlarini va ularning qaysi biri kerak, qaysi biri kerak emasligini aniqlash ekanligini aytdi. U o'zining maqsadi va fikrining to'g'riligini qat'iy bayon qilgan bo'lsada, keyinroq yana Haqning ma'rifati masalasiga qaytganda, u avvalgi aytganlariga xilof gaplarni bildirganligi ma'lum. Hayotining so'nggida u tavba qildi, o'zida bor narsalarni kambag'allarga sadaqa qilib berdi, mazlumlarga yordamlashdi. Qur'onni yoddan o'qib, har uch kunda xatm qilardi. 428 hijriy sanada ramazon oyining birinchi jumasi kuni vafot etdi. Hamadon shahriga dafn etilgan. Tug'ilishi 370 h. Sana ba'zi manbalarda 373 h. deyilgan. Otasi Balxlik kishi edi. Nuh ibn Mansur podshohlik davrida Buxoroga ko'chib kelib, Hurmitan qishlog'iga oqsoqol bo'ldi. Afshona qishlog'ida yashab, shu yerda uylandi va Abu Ali shu yerda tug'ildi. Keyin Buxoro shahriga ko'chib va fiqh bilan shug'ullandi. Imom Ismoil az-Zohiddan fiqhni o'rgangan. Imom Yofi'iyning tarixida yozilishicha, Abu Ali 18 yoshga hali to'lmasidan hamma ilmlarni to'liq o'rgangan ekan. Uning yozgan kitoblari 100 ga yaqin. Ulardan "Risolatut-tayr" ("Qush haqida risola") asari mashhur. U kishi musulmon faylasuflaridan biridir. U zot zohidlik va tabattul (dunyodan uzilish) bilan botinini poklagan hamda maqsadlari cho'qqisiga yetgan edi".[14.299].

XIV-XV asrlarda bu masalada ulamolar, mutasavviflar, mutafakkirlar orasidagibahs-munozaralar davom etgan. Shuning uchun Muhammad Porso Ibn Sinoning tasavvuf yo'nalishida yozgan mashhur asarining Fariduddin Attordek buyuk kishilarga ilhom bag'ishlaganini ham eslatib

FALSAFA

o'tadi. Aytish mumkinki, Muhammad Porsoning "Faslul-xitob" asari ("Oq-qorani tanish") kitobi ham deb aytiladi. Monografik tadqiqotlarda asarning to'liq nomi "Fasl al-xitob li vasl al-ahbob al-foriq bayna al-xato va as-savob" ("Do'stlar visoliga yetishda xato va savobni ajratuvchi kitob"), deb keltiriladi. "الخطاب فصل" "Fasl al-xitob" ("qat'iy qaror") so'zi Qur'onning ("Dovud payg'ambar haqidagi") "الحكمة اتيناه و ملكه شددنا" YA'ni: "Uning hukmronligini ham mustahkam qildik va unga hikmat va qat'iy qaror (haqqoniy hukm chiqarishni) ato etdik" [15.24]. Mazkur asar o'z davrida va keyingi zamonlarda mutasavviflar, mutakallimlar va barcha ilm ahllari uchun juda muhim qo'llanma bo'lib kelgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. طاهري عراقي. خواجه محد بارسا بخراي رساله قدسية مقدمة ص. 11.
2. Асророва Л. Абу Ҳафс Кабир Бухорий ва ҳанафий фиқиҳи. - Тошкент: Ислон университети, 2014. - Б. 107.
3. Петрушевский И.П. Земледелие и аграрное отношение в Иране XIII-XIV веков. Москва-Ленинград. 1960. - С. 32.
4. حلة ابن بطوطة تحفة النظار في غرائب الامصار و عجائب الاسفار. دار احياء العلوم ببيروت. 1978. - Б. 898.
5. Хожа Исмаи Бухорий. Девон. - Душанбе: Истеъдод, 2020. - Б. 182.
6. Фахруддин Али Сафий. Рашоҳот айну-л-ҳаёт. Худойберган Бекмуҳаммад таржимаси. - Тошкент: Абу Али Ибн Сино, 2004. - Б. 91.
7. Ислон. Энциклопедия. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2003. - Б. 258-259.
8. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. - Тошкент: ТошДШИ, 2010. - Б. 189.